

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MILLIY HUNARMAKOLABORATORI

Ona yurtning-oltin beshiging

TONG YULDUZI

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqqan boshlagan

№ 37 (66318)
2001 yil 14 sentyabr, juma

Sotuvda erkin narxda

BIZ HAM MUXBIR BO'LAYLIK

Tahririyatimizga kelgan maktublarni saralab o'tirgandik. Ular orasidagi ikki xat diqqatimizni tortdi. Belarus respublikasidan Kristina va Alina ismli tengdoshlaringiz bizga maktub yo'llashibdi. Ularning yozishlaricha, O'zbekistondagi qarindoshlari orqali "Tong yulduzi" gazetasini olib turishar, undagi maqola va xabarlarini zo'r qiziqish bilan o'qib borishar, boshqotirmalarni yechishar ekan. "Biz ham belorus bolalari hayoti, o'qishlari, sevimli mashg'ulotlari haqida gazetangizga



maqola va xabarlar yozib tursak" deb yozishibdi. Mogilyov viloyatining Bobruysk shahrida yashovchi Kristina va Alinalar "Chernobil bolalari" ekanlar. Shuning uchun ham har yili chet ellarga borib, salomatliklarini tiklab kelisharkan. Kristina bu yil Italiyaga borib, havo almashtirib kelibdi. U yerlik "senyora"lar qizchani juda iliq qarshi olishibdi, shaharning diqqatga sazovor joylarini tomosha qildirib, sovg'a-salomlar bilan uyiga kuzatib qo'yishibdi. Alina diniy maktabning 4-sinfida tahsil

olar ekan. Ustozlaridan poklik, halollik, vijdoniylik kabi fazilatlarini o'rganisharkan. Bunday maktabda o'qiydigan bolalar hatto televizor ham ko'rishmas ekan...

Alina shu kunlarda Gollandiyaga borish taraddudida ekan. Uning yozishicha, bunday safarlar ularga kuch-quvvat, g'ayrat va shijoat bag'ishlarkan.

"Chet ellarda juda ko'p bo'lganmiz, hammasi ajoyib, ko'rkam shaharlar. Qarindoshlarimiz gapirganlarida og'zilaridan bol tomadigan jannatmakon diyor - O'zbekistonga ham bir bor borishni, o'zbek bolalari bilan do'stlashishni juda - juda orzu qilamiz", deb yozishibdi ular.

Biz ham qizaloqlarning orzulari ijobat bo'lishini tilab,

Belorussiyadan xat do'stlari va dugonalari haqidagi maqola va xabarlarini kutib qolamiz.

Tengdoshlaringiz Alina va Kristinalar bilan do'stlashmoqchi bo'lsangiz, ularga xat yozing.



Navoiylik tengdoshingiz Dilafro'z Bahriddinova bu yil juda omadli bo'ldi. Gazetamizning faol muxbirlaridan biri bo'lgan Dilafro'zni siz ham yaxshi tanisangiz kerak. Ko'plab she'riy mashqlari, maqola va xabarlar gazetamizda chop etilgan. Dunyoni mittigina tasavvurida ko'rib, bolalarcha samimiy, sodda va beg'ubor she'rlarida aks ettiradi. O'tgan yili tuman miqyosida o'tkazilgan "Kimning xati chiroyli?", Al - Motrudiy va Kamoliddin Behzod tavalludi munosabati bilan o'tkazilgan "Eng yaxshi yozilgan she'r" hamda A.Navoiy tavalludining 560 yilligiga bag'ishlangan "Havaskor shoirlar" ko'rik - tanlovlarda birinchi o'rinlarni qo'lga kiritdi.

OMAD KULIB BOQQAN QIZ

Yangi o'quv yili arafasida Dilafro'zning hayotida yana bir quvonchli voqea ro'y berdi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyatida iste'dod nishonasi endigina kurtak otayotgan Dilafro'zning she'riy mashqlari jamlangan mitti kitobchasi chop etildi. Nurota tumani hokimi O'ktam aka Hakimov kitobchani Dilafro'zga tantanali ravishda topshirib, unga maxsus "hokim stipendiya-



si"-ni berishni va'da qildi. Dilafro'zning quvonchi cheksiz: "Qo'lga kiritgan yutuqlarimning hamma - hammasi uchun ustozim - "Nurnoma" tuman gazetamiz muharriri Suyundiq aka Mustafoyevdan behad minnatdorman", deydi qizaloq. Aziz o'quvchilar, siz ham tengdoshingiz quvonchiga sherik bo'ling, she'rlarini o'qing, havas qiling, uningdek bo'lishga intiling.

Tabriklaymiz ISFAK

Istagim shul hayotda, Hamma omadli bo'lsin. Dunyomiz bolalarning, Kulgusi bilan to'lsin. Ota-onamiz umri, Bamisli chinor bo'lsin. Oллоh nazar solgan Yurt - O'zbekiston bor bo'lsin.



O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi Vazirligiga qarashli Respublika o'quvchilar texnik ijodiyot Markazida "Ijodkor-ixtirochi bolalar ko'rgazmasi" bo'lib o'tdi.

Ko'rgazmaga har galgidek Respublikamizning barcha viloyatlaridan kelgan iqtidorli o'quvchilarning eksponatlari qo'yildi.

- Avvalo mustaqilligimizning o'n yillik to'yi barchamizga muborak bo'lsin, - dedi O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi Vazirligining maktabdan tashqari ishlar bo'yicha boshqarma boshlig'i Jamoliddin Fozilov. - Siz O'zbekistonimizning ertangi kunisiz. Barchangiz bilimdon va zehnlisiz. Ko'rgazmaga qo'yilgan eksponatlar buning isbotidir. Ushbu tadbir orqali siz bir-biringizdan yanada ko'proq narsalarni o'rganib olasiz. Bilganlaringizni o'rgatasiz.

Ko'rgazmadan qishloq xo'jaligi mashinalari, milliy hunarmandchilik va amaliy san'at ishlari, harbiy va chegara xizmati uchun moslamalar kabi o'n yo'nalish bo'yicha o'quvchilarning

MAQSAD G'OLIBLIK EMAS

yuzdan ortiq ixtirolari joy olgan edi.

Asakadagi 8-maktabning 7-sinf o'quvchisi Dilshod Ismoilovning «Asaka-9 sayyora» modeli ko'pchilikning e'tiborini tortdi.

-Uni kosmosda ham ishlatsa bo'ladi. Mashinaning oyoqlari suvda yurishga ham moslashgan. Unda bitta motor bor. Usti oddiy qalin qog'ozdan, oynalari ichimlik quyiladigan yelim idishlardan tayyorlangan. Ichida to'rtta xizmatchi bor. Ulardan biri tepada o'tirib yo'l ko'rsatsa, biri mashinani boshqaradi. Har birining o'z ishi bor. Mashinani yaratishda menga ustozim Igor Borisovich katta yordam berdilar.

Men qatnaydigan o'quvchilar ijodiyot markazida 370 nafardan ziyod bolalar o'zlarini qiziqtirgan to'garaklarda band. To'garak a'zolari barcha tadbirlarda,

tanlovlarda faol qatnashadi. Dilshodning gapini tinglay turib, G'ijduvondagi 45-maktabning 9-sinf o'quvchisi Suxrob Rahimovning ixtirosi bilan ham qiziqib qoldim.

- Bu iqtisodiy o'yin hisoblanadi. Uni "Biznes klass" deb atadim. U tayoqcha va chiroqlar yordamida o'ynaladi. O'yinda tadbirkorlikning asosiy yo'llari ko'rsatib berilgan. Masalan, tadbirkorlikning manmanligi, xalq e'tiboridan qolishi, qonunni bilmaslik jinoiy javobgarlikka olib kelishi kataklarda ko'rsatilgan. To'g'ri javobga qizil chiroq yonadi.

O'yinda "Halol qonuniy tadbirkorlik" dan marraga ya'ni "Farovon hayot" ga chiqish mumkin.

Ishtirokchilarimizdan yana biri Surxondaryo viloyati Boysun tumanidagi 1-maktabning 8-"A" sinf o'quvchisi

Dilmurod Normamatov o'zining ixtirosini "Radio-telefon" deb nomlabdi. Uning telefoni bir vaqtning o'zida uch yo'nalishda, ya'ni radio, signalizatsiya va telefon vazifasini bajaradi.

- Tumanimizdagi o'quvchilar texnik ijodiyoti markazida ko'plab tengdoshlarim texnik ixtiro bilan shug'ullanishadi. Mening ishlarim viloyatda o'tkazilgan birinchi turda g'olib bo'lgani uchun Respublika miqyosida qatnashish nasib etdi. Bugungi ko'rgazmada mening ixtiroim yaxshi o'rinlarni olmasa sira xafa bo'lmayman. Ustozimiz Ahad aka Rahmatullayev aytganidek, bizning hozirgi vazifamiz izlanish, o'rganishdir.

Ijodkor o'quvchilarning ishlarini kuzatar ekanman, ular kelajakda katta-katta ixtirolar qilishlariga ishonchim. Ko'rgazmadan maqsad g'oliblik emas. Balki bolalarni texnik ijodkorlikka yanada qiziqtirish, bir-birlarining ixtirolarini kuzatish orqali o'z kamchiliklarini anglashdir.

Feruza ODILOVA.

Xalqaro Qizil Xoch Qo'mitasining Markaziy Osiyo respublikalaridagi Mintaqaviy Vakolatxonasi ta'lim dasturlari bo'limi "Tong yulduzi" gazetasi o'quvchilarini yangi o'quv yili bilan tabriklaydi. Biz ta'tildan

so'ng sizlarning quvonch bilan o'qishni boshlaganlaringizga ishonamiz. Har bir yangi dars sizga yangi bilimlar, yangi quvonchlar ulashadi. Umumta'lim maktab-



Suratdagi tengdoshingiz. Namangan viloyati, Davlatobod tumanidagi 58-maktab o'quvchisi Farhod Bahodirov avvalgi tanlovning q'olibi deb topildi.

O'Z BILIMINGIZNI SINAB KO'RMOQCHI BO'LSANGIZ - TANLOVDA QATNASHISHGA TAYYORLANING

(GAZETAMIZNING SHU YILGI 6 IYUL SONIGA QARANG)

Birinchi bosqich savollari:

1. O'zbekiston Respublikasi 1949 yilgi Jeneva Konvensiyalari va ularga Qo'shimcha bayonnomalarga qachon qo'shilgan?
2. Xalqaro Qizil Xoch Qo'mitasi (XQXQ) qachon, kim tomonidan va qayerda tuzilgan?
3. Jeneva Konvensiyalari himoyasi ostida bo'lgan kishilar toifalarini sanab ko'rsating.
4. Tinchlik bo'yicha Nobel mukofotiga ilk bor kim, qachon va qanday xizmatlari uchun sazovor bo'lgan?
5. XQXQ vakolatxonalarini dunyodagi qancha mamlakatda faoliyat ko'rsatmoqda?

larining 11-sinf o'quvchilari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari, uchinchi kurs talabalariga esa yangi tipdagi o'quv qo'llanmasi dars mavzulari bilan uch-rashadilar. Ularning o'ziga xosligi

shundaki, "Inson va jamiyat" ("Shaxs va jamiyat") kursi bo'yicha qo'shimcha o'quv qo'llanmasi darslari bahsmunozara tarzida olib boriladi. Mazkur qo'llanmaning maqsadi - jamiyat

hayotini qat'iy belgilab turuvchi, barcha davrlarda amal qilib kelingan tartib-qoidalarga rioya etish zarurligini sizning ongingizga yetkazishdir, zero, ularsiz kishilarning jamiyatda hayot kechirishi o'z ma'nosini yo'qotgan bo'lar edi.

Shu munosabat bilan gazetamiz sahifalarida "MEN INSONIY-LIKNI QANDAY TUSHUNA MAN" tanlovi boshlanadi. Tanlov sentyabr va oktyabr oylarida, ikki bosqichda o'tkaziladi. 11 - sinf o'quvchilari, litsey va kollejlarning talabalaridan

tashqari 5-10 - sinf o'quvchilari ham o'z kuchlarini sinab ko'rishlari mumkin. Chunki o'quv qo'llanmasi o'qituvchilar tomonidan boshqa sinflarda o'tilayotgan fanlarda ham foydalanilmoqda. Eng qiziqarli javoblar e'lon qilinadi.

Ana shu ikki bosqich g'oliblarini magnitafon, pleyer, fotoapparat va boshqa qimmatbaho sovg'alar kutmoqda!

Javoblaringizni quyidagi manzilga yuboring:

700000, Toshkent shahri, Asaka 1-tor ko'chasi, 8-uy.
"TANLOVGA"

TENGDOSHINGIZ NIMA DEYDI?

Barno AHMEDOVA,

Qashqadaryo viloyati, Kitob shahridagi Ahad Xo'jayev nomli 3-maktabning 6-sinf o'quvchisi:

- 6 - sinfdan o'qiyapman. O'qishlarim a'lo. Barcha fanlarni sevib o'rganyapman. Ayniqsa ona tili, adabiyot, ingliz tili bilan jiddiy shug'ullanayapman.

Bo'sh vaqtlarimda she'rlar mashq qilaman. Shoirlarning she'rlaridan yod olaman.

Adabiyot bo'yicha o'tkaziladigan olimpiadalarda, maktabdagi tadbirlarda albatta o'z she'rlarim bilan ishtirok etaman.

Bu kabi tadbirlarda sinfdoshlarim ham faol. Ular sho'x va bilimdon bolalar. Turli mavzularda bemalol bahslashadilar, fikrlashadilar. Adabiyotni, she'riyatni yaxshi ko'rishadi. Shuning uchun ham ko'pincha she'rxonlik kechalarini uyushtiramiz.

Ayrim vaqtlarda kechamizga xalaqit beruvchi urishqoq bolalar ham topilib qoladi. Ana shundaylarga atab she'r ham yozganman.

Farrux SHOERGASHEV,

Fuzuliy nomli maktabning 3 - sinf o'quvchisi.

Men Toshkent shahar, Yunusobod tumanidagi «Obod» mahallasida yashayman. Xonadonimiz shundoqqina mahallaga kiraverishida joylashgan. Hovlimizning ro'parasida esa qadrdon maktabimiz qad rostlagan. Mahallamiz juda obod va ko'rkam. Uning "Obod" nomiga munosib bo'lishida bobomning xizmatlari katta. Bobojonim Ergash ota Shorustamov shifokorlar, buvijonim Sanobar aya bilan mana 45 yildirki ahil-inoq yashab kelishadi. Biz 15 nafar nabiralari ularni juda yaxshi ko'ramiz, boshimizga ko'tarib, e'zozlaymiz.

Bobojonim juda mehnatkashlar. Yoshlari bir joyni qoralab qolgan bo'lsa-da, tinib-tinchimaydilar. Shifokor emasmilar, shifo istab kelgan qo'ni-qo'shnilar, qarindosh - urug'lar dardlariga malham bo'lishga intiladilar, ulardan yordamlarini ayamaydilar. Maktabimiz atrofiga mevali va manzarali daraxtlar ekib, o'zlari parvarishlaydilar. Yaratgan gulzorlarini ko'rsangiz, ko'zingiz quvnaidi. Maktabdan keliboq, ularning yonlariga oshiqamiz. Bobojonim bizlarni g'arq pishgan mevalar bilan siylaydilar.

Alisher ABDULLAJONOV
yozib oldi.

Zokir BOLLIIYEV,

Shahrisabz tumanidagi al-Xorazmiy nomli 3-litseyning 8-sinf o'quvchisi:

- Men Chiroqchi tumanidagi «Zum» qishlog'ida yashayman. Qishlog'imizda maktab bor. Lekin men Shahrisabz tumanidagi 3-litseyda o'qiyman. Litseyimizda iqtisod, matematika, tarix, ona tili, ingliz tili fanlari chuqur o'rgatiladi.

Darsdan so'ng turli fanlardan qo'shimcha dars soatlari o'tiladi. Ayniqsa adabiyot o'qituvchimiz Larisa opa Esanova tez-tez tadbirlar, kechalar o'tkazib turadilar. Fan to'garaklaridan tashqari sport, hunar to'garaklarida ham o'quvchilar gavjum.

Yaqinda mening "Nihol" deb nomlangan she'riy to'plamim bosmadan chiqdi. Bundan juda xursand bo'ldim.

Har kuni o'z maktabim tomon yo'l olarkanman, bizning qishlog'imizda ham sport klublari, sport maydonchalari, fan to'garaklari tashkillanarmikan, degan xayolga boraman. Ana shunda biz o'quvchilar shuncha uzoq yo'l bosib qo'shni tumandagi maktablarga bormagan bo'lardik.

Ta'til kunlari tugab, o'qishlarni ham boshlab yubordik. Dugonalarim bilan bir-birimizni juda sog'inib qolibmizmi, gaplarimiz ko'payib ketdi. Kimdir ta'tilni qarindoshlarinikida o'tkazganini so'zlasa, yana kimdir oromgohdagi maroqli kunlari haqida zavq bilan gapirib berdi. Men esa ta'til kunlarida tumanimizdagi qo'shimcha ta'lim markazi qoshidagi mashina

yozuvi

to'garagiga qatnadim. Markazimizdagi rassomlik, raketamodelchilik, tikish-bichish, to'qish kabi to'garaklar ham biz kabi o'g'il-qizlar bilan gavjum bo'ldi. O'z qo'limiz bilan tikkan, to'qigan, yasagan narsalarimiz, chizgan suratlarimiz bilan ko'plab bayram tadbirlarida qatnashdik.

Mustaqilligimizning 10 yilligi arafasida "Onalar va bolalar" yiliga bag'ishlab ajoyib bir tadbir uyushtirdik. Tayyorlagan sahna ko'rinishlarimiz,

HUNARLI BO'LIB

OLDIM

kuy va qo'shiqlarimiz yig'ilganlarga manzur bo'ldi. Tadbirimizga kelgan mehmonlarni, onajonlarimiz o'zimiz tayyorlagan shirinliklarni turli salatlar bilan siyladik. Tadbir so'ngida markazimiz rahbari Ro'za opa Ibrohimova tikuvchilik, to'quvchilik, mashina yozuvi va boshqa to'garaklar bitiruvchilariga guvohnomalar, faol qatnashchilariga esa «Maqto'v yorliq»lari

topshirdilar. «Maqto'v yorliq» olishga men ham sazovor bo'ldim. Ta'til kunlarimni bekor o'tkazmay, hunarli bo'lib olganimdan oyijonim ham juda xursandlar. Suratlarida tadbirimizdan lavhalar aks ettirilgan.

Dilnoza PO'LATOVA,
Yunusobod tumanidagi 273-litsey maktab o'quvchisi.



"ONAM HAQIDA SO'Z" TANLOVI G'OLIBLARINI QUTLAYMIZ

Aziz bolajonlar! Barchangiz ko'chadar qaytar ekansiz, uyu kiriboq darhol onangiz uydami, yo'qmi aniqlab olasiz, shundaymi? Onajoningiz uyda bo'lsalar, ko'nglingiz xotirjam tortadi. Aksincha, uyda bo'lmasalar nimanidir yo'qotib qo'ygandek onajoningiz kelishlarini sabrsizlik bilan kuta boshlaysiz. Hayallab qolgudek bo'lsalar, ko'chadan tez-tez xabar olishingiz ham turgan gap. Mana, onajoningiz ham keldilar. Bugungi sirlaringizni, dardlaringizni tezda ular bilan bo'lishingiz va ulardan maslahat olgungiz keladi, - deb boshlangan edi 2000 yil, 2 noyabr kuni gazetamizning 7-betida bergan maqolamiz. Umrimiz quvonchi, qalbimiz gavhari Onalar haqida so'z aytmogga chog'langan kuningizdan beri juda ko'p maktublar oldik. Eng ta'sirchan va pishiq-puxta yozilganlarini gazetamiz sahifalarida e'lon qildik. Va'da vafosi bilan go'zal, deganlaridek, tahririyatimiz a'zosi, tadbirkor olim Ergashvoy Sariqov g'oliblarni aniqladi va o'z sovg'alarini quyidagilarga topshirishga qaror qildi.

1 - o'rin g'olibi Ixtiyor MAQSUDOVG'A fikrni charxlaydigan elektron qurilma. (2001 yil, 8 iyun soniga qarang).

2 - o'rin Gulnoz TOJIBOYEVAGA "SEGO" elektron o'yini. (2001 yil, 15 iyun soniga qarang).

3 - o'rin Sherzod ZOIROVGA "DENDI" elektron o'yini. (2001 yil, 23 mart soniga qarang).

G'oliblarga sovg'alarni bilag'on bolalar homiysining o'zi shu yil, 24 sentyabr kuni "Istiqlol umidlari" to'garagimiz a'zolari ishtirokida topshiradi. Qiziquvchilar, havas qiluvchilar bo'lsa, keling, ko'rib ijod mashaqqatlarining hayajonli lahzalariga guvoh bo'ling.

SARVARBEKNING SABOG'I

Sarvarning onasi Xolida opa Qosimova Shirin shahar madaniyat bo'limida ishlagan chog'larida ko'plab tadbirlar o'tkazardi. Uni Sarvar ham qiziqib tomosha qilar va ba'zan o'zi ishtirok etib, qalbi zavqqa to'lardi. Shunday qilib uning sekin-astasan'atga qiziqishi ortib bordi.

Kattaqo'rg'on shahar Abdulhamid Majidiy nomli teatr qoshida tashkil topgan "Turon" yoshlar studiyasi 2001 yilning aprel oyida Sirdaryo viloyati Guliston shahridagi maktab o'quvchilari huzurida bo'ldi. Maktab o'quvchisi bo'lgan Sarvarning san'atga muhabbatini sezgan teatr-badiiy rahbari Ravshan Yeriyev unga "Onaizor" spektaklidagi o'tkinchi bola rolini beradi. Sarvar bu rolni onasi bilan birga shug'ullanib, ishonarli ijro etdi.

Darbadar: - Xay bola, beri kel.

Men vatanidan ayrilgan kelgindiman. Bir burda non ber.

O'tkinchi bola: (Sarvar) - Ishlash kerak boboy, ishlash.

Bizda tekinga non berilmaydi. Darbadar - Menga yaqinroq

kel, sen ham musulmonga o'xshaysan...

O'tkinchi bola: - Menga yaqinlashmang, sassiq hidingiz o'tib qoladi...

Darbadar g'azabga keladi - yo'qol, yo'qol!

O'tkinchi bola: - O'zing yo'qol, kelgindi.

xxx

Shu kichik ko'rinish orqali Sarvar odamlarga, vatangadolarga chetdagi munosabatni bildirdi.

"Ota faryodi" nomli kichik sahna ko'rinishidagi bola obrazini yaratganda ham yoshlarni boshi berk ko'chadan qaytarish, ya'ni giyohvandlikka qarshi kurashish kerakligini aks ettirdi.

Bu sahnada ham faqat ota va

bola ishtirok etadi, xolos. Bola onasidan 3 oylik chaqaloq qolgan. Ota shu farzandini o'gay ona qo'lida xorlanmasin deb qayta uylanmagan. Yakka farzand bo'lgani uchun nima desa aytganini qilgan. Biroz erka o'sgan bola ko'p o'tmay ko'chadagi ulfatchi-liklarga qo'shiladi va o'zi sezmaganda holda

nashavandlarga qo'shib ketadi.

So'ng u hali hayot nimaligini bilmay turib nobud bo'ladi va voqea fojea bilan, otaning yuraklarini larzaga soluvchi faryod bilan tugaydi.


Tengdoshingiz Sarvarbek Qosimov Sirdaryo viloyati, Shirin shahar, Hamza nomli 2-o'rta maktabning 5-sinfining iqtidorli o'quvchisi. Kelajakda undan ko'plab yaxshi obrazlar kutib qolamiz. Uning iste'dodini shakllantirgan «Turon» yoshlar studiyasining yangi va xayrli ishlarida omad yor bo'lsin.

Mamat ASQAROV,

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, "Turon" yoshlar teatri direktori o'rinbosari.

Musiqqa o'qituvchilari uchun

ESTETIK TARBIYA O'CHOG'I



musiqadan estetik zavq olish, uning hayotiy mazmunini tushunishni shakllantirish kerak. Kichik yoshdagi maktab o'quvchilari umumta'lim bayramlari to'g'risidagi qo'shiqlarni bajonidil kuylashadi. Sinfda jo'r bo'lib qo'shiq aytishda butun sinf qatnashadi. Estetik idrokni, estetik didni tarbiyalash, badiiy qobiliyatlarni rivojlantirish doimo aqliy va axloqiy tarbiya bilan o'zaro ta'sirda bo'ladi.

Estetik tarbiyaning yanada takomillashuvi, uning o'quvchilar qiziqishiga mos shakl topishi tashabbuskorlik hamda faollikning keng quloq yozishi bu davr uchun xarakterlidir. O'quvchilarni estetik tarbiyalash yuzasidan ish olib borayotgan maktablarning amaliy tajribasi, ijodiy mehnatlari hozirgi kunda estetik tarbiya shaxsni shakllantirishning eng muhim elementi ekanini ko'rsatmoqda. Har bir

maktabda bolaga estetik tarbiya berishning intensiv va rivojlantiruvchi kompleksini tashkil qilish uchun, estetik tarbiyaning maqsadlari va vazifalari bir tomonlamaligi haqidagi tushunchalarni bartaraf etish kerak. Tabiatda tevarak atrofdagi go'zalliklarga munosabat va fandagi go'zalliklarni anglash san'at o'rtasidagi muloqotga nisbatan ancha ko'p tarbiyaviy samara beradi. Chinakam estetik tarbiyani tashkil etishdagi jiddiy kamchilik shundaki, ko'pincha yuzaki hal qilinadi. Masalan, ma'lum bir badiiy asar jiddiy maqsadlarsiz foydalanish uchun rejalash tiriladi. Vaholanki, o'quvchilar bilan ajoyib musiqa, adabiyot yoki tasviriy san'at asarlari haqida faqat kezi kelganda yuzaki tarzda gaplashmaslik kerak. Badiiy asar hujjatlari asosidagi tarbiyaviy ishning saviyasi asarning murakkabligi, undagi


g'oyaning chuqurligi muallifning badiiy mahorati va axloqiy estetik tasavvuriga muvofiq bo'lishi lozim. O'quvchi birinchi navbatda kitoblar yoki rasmlar muhitida bo'lishi, asar uchun tegishli badiiy axloqiy-estetik mohiyatni anglashi kerak.

Bola san'at asarini idrok etishda bir lahza unga mahliyo bo'lib qoladiki, uning xuddi shu lahzadagi ichki kechinmalari pedagogning aynan ko'zlagan maqsadidir. Agar bola ma'lum bir rangli tasvir asariga loqayd tomoshabin bo'lib qolsa, yoki buyuk musiqa asarini loqaydlik bilan tinglasa, keyin o'qituvchi bu asarning buyukligi va o'lmasligi haqida aytiladigan gaplari bekor ketadi. O'quvchi mazkur tinglagan musiqa yoki san'at asari haqida birorta savol bermasa, unda biror hissiyot vujudga kelmasa, shaxsiy hissiyot va munosabat bilan bog'lanmagan xabar tarzidagi aloqagina paydo bo'lsa, demak vazifa bajarilmagan, maqsadga erishilmagan hisoblanadi.

Har bir inson madaniyatining asosi uning musiqa-estetik madaniyatidir. Uni ilk yoshidan shakllantirish, tarbiyalash kerak. Musiqa mashg'ulotlarida bolalarda estetik ong, tafakkur va shaxsning axloqiy tamoyillari shakllanadi, hissiy madaniyat rivojlanadi, aqliy potensial faollashadi.

Musiqa mashg'ulotlarida bolalarda milliy musiqa meroslariga asoslangan qo'shiq, ritmik o'yinlar katta qiziqish uyg'otadi. Mashg'ulotlar jarayonida xalq milliy musiqa asboblarning ta'limiy va tarbiyaviy imkoniyatlaridan keng foydalanish lozim. Xalq qo'shiqlarini eshittirish, kuylash ularni hissiy jonlantiradi, musiqaga qiziqishini uyg'otadi, quvonch va zavq keltiradi.

Ahmadjon XODJIMATOV



Yosh avlodni tarbiyalashda "Musiqa madaniyati" darslarini ahamiyati katta. Musiqiy madaniyat darslari o'quvchilarni axloqiy-estetik tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ulardagi go'zallikka bo'lgan his-tuyg'ularini o'stiradi, ona Vatanni sevisha, bir-birini, kattalarni hurmat qilish, tabiatni qadrlashga o'rgatadi va hayotda o'z o'rnini topa olishga madad beradi. Bunda o'quvchilar musiqa san'atini butun nafasati bilan o'rganishlari, uni idrok etish, yakka va jamoa bo'lib qo'shiq kuylash va raqsga tushishni o'rganadilar.

Musiqa san'ati-estetik tarbiyani muhim omili bo'lib, u garmonik rivojlangan shaxsni kamolotga yetishishi uchun unga muhtim ta'sir etuvchi jarayondir.

Estetik ideal to'g'risidagi tushunchaning beqarorligi maktab yoshi uchun xarakterlidir. Sarguzasht, ilmiy-fantastikaga doir adabiyotlarga qiziqish ishqibozlik bilan almashinishi, televideniyaning badiiy eshittirishlariga ishtiyoqmandlik o'rnini havaskorlik san'ati egallashi mumkin. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarga musiqa bilan muloqotda bo'lish orqali

Misol uchun, jonajon O'zbekistoni-mizdagi biron-bir oliy o'quv yurtiga o'qishga kirmoqchi bo'lsangiz, kirish imtihonlarida albatta ingliz yoki boshqa g'arb tilidan 36 ta test savollari beriladi. Ingliz tilini yaxshi bilsangiz, test savollariga bemaol to'g'ri javob berasiz. Ingliz tili bo'yicha test savollariga qanchalik ko'p to'g'ri javob bersangiz, shunchalik o'qishga kirish imkoniyatingiz oshadi.

Ingliz tilini mukammal o'rganib olish uchun nima qilish kerak? Gazetamiz o'quvchilari, aziz bolajonlarga foydali maslahatimiz - ko'cha changitib bekor yurgandan ko'ra ingliz tili grammatikasini va fonetikasini yaxshilab o'rganing, bu tilda bemaol so'zlashadigan bo'ling!

Agar chin dildan, astoydil kirishsangiz, harakat qilsangiz va intilsangiz, ingliz tilini mukammal o'rganish sizning qo'lingizdan keladi.

O'zbek xalqida "Intilganga tole'yor" hamda "Qimirlagan qir oshar" kabi ajoyib va ma'noli maqollar bor. Sizlar ham ana shu maqollarni amalda qo'llang!

Ingliz tilini yoki boshqa bironta xorijiy tilni o'rganayotganingizda eng muhimi va asosiysi - umidsizlanmaslik, orqaga chekinmaslik, qayta-qayta intilib, xayolni bir joyga to'plab qunt bilan o'rganish kerak.

Inson, xoh u til o'rganmoqchi bo'lsin, xoh u boshqa bir maqsadga erishmoqchi bo'lsin, buning uchun birinchi navbatda chin yurakdan, butun vujudi bilan harakat qilishi, umid bilan yashashi, intilishi va mehnat qilishi zarur.

Shaxsan men ingliz tili, arab va turk



1. "SHIELD" so'zining

(fe'l shaklining) sinonimini toping.

- A. SAVE
- B. KILL
- C. PROTECT
- D. SHOUT

2. "GRUMBLE" so'zining

(fe'l shaklining) sinonimini aniqlang.

- A. COMPLETE
- B. COUNT
- C. COMPEL
- D. COMPLAIN

3. "SCORCH" fe'lining sinonimini toping.

- A. DISCOLOR
- B. DISAPPEAR
- C. DISLIKE
- D. DISCOUNT

SINONIM SO'ZLARGA OID TEST SAVOLLARI

4. "QUICKLY" so'zining

sinonimini aniqlang.

- A. LONELY
- B. BRISKLY
- C. HARDLY
- D. SLOWLY

5. "SHREWD" sifatining

sinonimini toping.

- A. CLEVER
- B. BRAVE
- C. STRANGE
- D. ALONE

6. "DROWSY" so'zining

sinonimini aniqlang.

- A. DIRTY
- B. CHEER
- C. SLEEPY
- D. RAINY

7. "MISTY" so'zining

sinonimini toping.

- A. MISTERYOUS
- B. FOGGY
- C. SHINY
- D. WINDY

8. "STRAY" so'zining

sinonimini aniqlang.

qo'shig'ingizning (masalan, inglizcha, arabcha, turkcha qo'shiq) ma'nosini bilish qiziq emasmi? Albatta qiziq!

Shu bilan birga, ko'pincha ingliz, arab yoki turk millatiga mansub odamlar bilan yuzma-yuz, og'zaki

so'zlashaman. Bu narsa esa menga til o'rga-nishda juda katta foyda beradi.

Garchi men 11 yildan beri ingliz tilini o'rganayotgan bo'lsam-da, lekin hozirda ham har kuni kamida 2 soat vaqt ajratib, ingliz tilidagi jurnallarni, gazetalarni va badiiy kitoblarni o'qiyman hamda lug'at yordamida tarjima qilaman.

Siz til o'rganuvchilarga ham maslahatim - aynan yuqorida aytib o'tgan barcha gaplarimga amal qilib,



tillarini o'rganayot-ganimda, birinchi navbatda bu tillarning grammatika- sini, fonetikasini erinmay, muntazam (har kuni) puxta o'rganib borganman. Shuning-dek, ushbu tillarda og'zaki so'z-lashuvga ham katta e'tibor berganman.

Masalan, ko'pincha ingliz, arab va turk tillaridagi badiiy filmlarni tarjimasiz, original (asliyat) holda tomosha qilardim, filmdagi so'zlashuvlarning ma'nosiga tushunishga harakat qilardim, hozir ham shunday.

Har doim inglizcha, arabcha va turkcha qo'shiqlarni tinglab boraman. So'ngra erinmasdan ushbu tillardagi qo'shiqlarni tarjima qilaman. Axir tinglayotgan yoki yoqtirgan

INGLIZ TILINI O'RGANAMIZ



WE LEARN ENGLISH

Aziz til o'rganuvchilar! Ma'lumki, hozirda biron-bir chet tilini, ayniqsa jahon tili bo'lmish - ingliz tili va dunyoning ko'plab davlatlarida so'zlashiladigan tillar - ispancha, fransuzcha, nemischa, arabcha, ruscha hamda italyancha kabilarni mukammal o'rganish va bilgan odam hech qayerda qiynalmay, omadi chopib, baxtli yashayapti. Masalan, ingliz tilini mukammal bilgan odam bemaol xohlagan oliy o'quv yurtiga o'qishga kira oladi. Shuningdek, inglizchani va boshqa tillarni biladiganlar uchun yurtimizdagi turli qo'shma korxonalar, firmalar, vakolatxonalar, poytaxtimizdagi xorijiy davlatlar elchixonalarida ish o'rnlari ko'p. Ushbu ish joylaridagi maosh va gonorarlar ham hozirgi zamon talablariga javob beradi. Biron-bir xorijiy davlatga sayohat uchun, ish yuzasidan yoki o'qishga borganingizda, agar ingliz tilini yaxshi bilsangiz u yerdagi odamlar bilan bemaol gaplashib, qiynalmay yashayverasiz.

Xulosa shuki, hozirgi zamonda inglizchani yoki boshqa biron xorijiy tilni bilmasangiz... Ish chatoq!

siz ham ularni har kuni bajarib boring! Ingliz tilini o'rganishda har kunlik rejangizni oldindan tuzib oling!

1. Har kuni erinmay, kamida 2 soat vaqt ajratib, ingliz tili grammatikasini va fonetikasini turli inglizcha o'quv qo'llanmalaridan hamda kitoblardan o'qib o'rganing!

2. Har kuni kamida 10 ta inglizcha so'z yodlab boring! Ya'ni, o'zingizga notanish bo'lgan, yangi so'zlarni yod oling!

3. Ingliz tili grammatikasi haqida, umuman inglizchani o'rgatuvchi kitoblarda berilgan mashqlarni bajaring va to'g'riligiga ishonch hosil qilish uchun ingliz tili o'qituvchingizga tekshirtiring!

4. Har kuni kamida 2 soat davomida inglizcha jurnallar, gazetalari va badiiy kitoblarni o'qing. So'ngra hech bo'lmaganda ulardan 2-3 abzatsini yoki 10-15 qatorini lug'at yordamida tarjima qiling. O'zingiz uchun notanish yoki yangi so'zlarni yod oling!

Bugungi olib boradigan ingliz tili darsimda esa oliy o'quv yurtiga kirishga tayyorlanayotgan o'quvchilarimizga yordam sifatida "Sinonim so'zlar" mavzusiga to'xtalman. Ya'ni, sinonim so'zlarga bag'ishlangan test savollarini e'tiboringizga havola etaman. Test savollariga to'g'ri javob berishga harakat qiling! Chunki oliy o'quv yurtiga kirayotganingizda ingliz tilidan bo'ladigan imtihonda aynan sinonim so'zlarga oid ko'plab test savollari beriladi.

Javoblarga qaramasdan testlarni yeching!

Shundan so'nggina to'g'ri javoblarga qarab, ingliz tilidagi sinonim so'zlar bo'yicha bilimingiz qanday darajada ekanligini bilib olishingiz mumkin.



- A. ESTABLISHMENT
- B. SURROUNDING
- C. SURFACE
- D. EMPLOYMENT

Test savollarining to'g'ri javoblari quyidagilar:

- 1 - C
- 2 - D
- 3 - A
- 4 - B
- 5 - A
- 6 - C
- 7 - B
- 8 - C
- 9 - D
- 10 - B

Shohruhbek KARIMBEKOV tayyorladi.

Samarqandlik tengdoshim Nasiba Ashurova bilan ta'til kunlari, Amir Temur xiyobonida tanishib qolgandik. U Kattaqo'rg'on tumanidagi 11-maktabning 9 - "A" sinfida o'qir ekan. Dadasi bilan birga Toshkentimizni tomosha qilgani kelishgan ekan.

- Poytaxtimiz menga juda yoqdi, - deydi Nasiba hayajonini yashirmay. - Mustaqillik maydoni, Xotira xiyoboni, Amir Temur xiyoboni. Ayniqsa, metro bekatlari juda chiroyli ekan.

Har bir bekatida ertaklar olamiga kirib qolgandek bo'ldim. Ularni bezatgan ustalariga rahmat!

- Demak, ta'tilingiz maroqli o'tayotgan ekan-da?

- Judayam, dadajonim bizlarni hech erinmay yetaklab yuradilar. Samarqanddagi Amir Temur

maqbarasiga, Imom al-Buxoriy ziyoratgohiga ziyoratga olib bordilar. Dugonalarim bilan Payshanba shahriga borib, tug'ilgan kunlarimizni nishonladik. Qishlog'imiz kutubxonasi juda boy. Unga a'zo bo'lib, Oybekning "Bolalik yillari"ni, Zulfiyaning she'rlarini o'qib chiqdim. Oyijonimdan "Qubba" tikishni o'rgandim. Dadajonimga poliz ishlarida

ko'maklashdim.

- Dugonalarimiz ham ko'pdir-a?

- Dugonalarim anchagina. Bu ta'tilda ularning soni yana bittaga ortdi. "Ma'rifat nuri" viloyat gazetasida Dilso'z Sodiqova ismli qizning she'rlarini o'qib, unga maktub yo'lladim. Tez orada undan javob xati oldim. Shu tariqa do'stlashib qoldik. Hozir xat orqali she'rlarimiz haqida fikrlashamiz, bir-birimizga maslahatlar beramiz.

- Bundan chiqdi, she'rlar ham yozarkansiz-da?

- Uncha-muncha mashq qilib turaman. Ilk bor yozgan "Dardlarim" nomli she'rimni hech kimga ko'rsatmay yurardim. Bir kuni uni dadajonim o'qib qolibdilar. "She'rlaring ancha

durust.

Tip - tiniq, bir maromda to'lqinlanib oqayotgan soyni ko'rganmisan? She'rlaring ham xuddi shunday silliq bo'lishi kerak. O'qigan odam huzur qilsin", deya maslahat berdilar. Yozgan she'rlarim ustozlarimga ham ma'qul bo'ldi. Shundanmi, maktabimizdagi "Yosh qalamkashlar" to'garagini boshqarishni menga

topshirishdi. "Vatanim" degan she'rimni siz ham eshitib ko'ring-a:

*Tug'ilib o'sgan yurtim - jon O'zbekiston,
Senda shod ulg'ayib g'ururlanaman.
Ko'zimning qarosi, sen jonu dilim,
Sendek Vatanim-la mag'rurlanaman.
Onajonim qalbidek qalbing beg'ubor.
Ko'rkingni yozaymi yoki baxtingni?
Shaharlaring bisyor, ko'hna, ulug'vor.
Savlat to'kib turgan, gul poytaxtingni?
Baralla madhingni kuylayman elim,
Tuproq'ing ko'zimga aylab to'tiyo.
Senga bo'lgan mehrim oshar tobora,
Mustaqil diyorum, sochaver ziyo.*

kompyuter bo'lganida, yanayam yaxshi bo'lardi-da...

- Ulg'aygach qaysi kasbni egallashni orzulaysiz?

- Telejurnalist bo'lsam deymen. Guli Ikromova, Yulduz Ochilovalarga juda-juda havas qilaman...

Nasiba bilan xayrlashar ekanman, o'qishlariga, ijodiga muvaffaqiyatlar tiladim.

- Orzularing hamrohing bo'lsin, qishloqdagi tengdoshim!

Nargiza AKBAR qizi.

HAMMASI YAXSHI-YU... KOMPYUTERIMIZ YO'Q

Bundan tashqari, musiqa, raqs, chizmachilik to'garaklari ham muntazam olib boriladi. Ayniqsa, fransuz tili to'garagining mashg'ulotlari menga juda yoqadi. Ustozimiz Dilbar opa Rasulovaning ko'magida bu tilni mukammal o'rganmoqchiman. Hammasi yaxshi-yu maktabimizda



Robert GREYVZ

INGLIZ O'RMONIDA

Bizning o'rmonimizda
Bo'lmas alvasti, jinlar.
Ko'zingizni quvnatar
Ko'm-ko'k eman, qayinlar.
Shamollari vahmsiz,
Silar yuzlaringizni.
Asrar turli balodan
Yorug' ko'zlaringizni.
Bu yerda arvohtar yo'q.
Ajinalar yo'q sira.
Shimingizga osilmas
Chaqirtikonlar xira.
Yorug'lik yo'llarin
Qorong'ulik bosolmas.
Yomon duo, qarg'ishlar
Ichingizni qisolmas.
Bunda yurmas tentirab
Jodugarlar, shomonlar.
O'tloqlarning ustida
Shivirlashar emanlar.
Quyosh botgan pallada
Qarasangiz osmonga
Oltin taroq shu'lalar
Yog'iladi o'rmonga.
So'qmoq bo'yab odamlar
Ketar uyi-uyiga,
O'ynab-kulib yetadi
Har kim tepa to'yiga.



LIFTCHI BOLA

Har bir voqeaning boshi bo'ladi,
Bir boshdan aytilsa yaxshi bo'ladi.
Badavlat qo'noqda men topib qo'nim
Botinka tozalab o'tardi kunim.
Cho'ntagimda doim ikki mis tugma
Hamda bitta pakki pichog'i egma.

Har bir voqeaning so'nggi bo'ladi
Ba'zi bir ishlarining o'ngi bo'ladi.
Bir kun kabinaga kirib bir va'zgo'y
Dedi: "Yuqoriga meni eltib qo'y...
Uyg'on, payting keldi, bolakay,
Tokay gunoh qilib yashaymiz, tokay?!
Hammani hech shaksiz yutar jahannam
Dunyoda liftchi ne, qolmas qirol ham.
Uana sen o'lasan, men ham o'laman,
Yomonlar kasriga halok bo'laman..."

Chamandagul

Robert Greyvz 1895 yilda Angliya boshkenti Londonda tug'ilgan. Otasi ham shoir edi. Birinchi jahon urushi davrida (1914) Robert urushga ketadi. Urushdan so'ng Oksfort universitetida o'qiydi. Avval o'z vatanida, keyin Misrning Qohira shahrida, so'ng Mayorka degan shaharda ingliz tili tarixidan dars beradi. Keyinchalik Angliyaga qaytib o'z ko'rgan-kechirganlari to'g'risida bir qancha romanlar, qissalar, maqolalar yozadi. Shuningdek, u juda ko'p she'riy kitoblarning ham muallifidir.

Robert Greyvz ajoyib kitoblar yozarkan, hech qachon bolalarni xayolidan chetda qoldirgani yo'q. Ular uchun yuzlarcha she'riy asarlar yaratdi va 60-yillarda "Bolalar uchun" deb alohida katta kitob chiqardi. Agar siz Robert Greyvz she'rlarini o'qisangiz o'zingizni sehrli olamga kirib qolganday his qilaysiz. Ularning hammasi xuddi ertakka o'xshaydi, ayni chog'da hammasi xuddi hayotdagiday. Ular garchi angliya hayotidan hikoya qilsa-da, she'r qahramonlari nimasi bilandir boshqa barcha odamlarga o'xshaydi. Qirol Dunkan, liftchi bola, Uels yolg'onchilari singari kishilar qaysi mamlakatda yo'q deysiz. Keling, yaxshisi Robert Greyvz she'rlari bilan tanishing. Ularni sizlar uchun shoir Miraziz A'zam ruschadan o'zbekchaga o'giran.

Maraz kabinadan sakrab tushdim-da
Liftning arqonini kesdim bir zumda.
"O'lasan" deguncha menga hoy-hoylab
Va'zgo'y jahannamga tushdi voy-voylab
Kunimga yaradi o'tkir pichog'im.
Yarqilagan pichog', keskir pichog'im.

QAYG'ULI SHE'R

Kun chiqishin
Ko'rmoq bo'lib
Jarga qulab bir shoir.
Bochka-Bochka
Pivolarga
Cho'kib o'lar bir shoir.

Kuchli to'lqin,
Shum xotin ham
Shoirlarni o'ldirar.
Ba'zan Shoir
Yuzga kirib
Yerda shahdam pildirar.



DUNKAN DEGAN QIROL

Dunyodan zerikkan qari bir qirol -
Ismi Dunkan o'zi - chiqazdi farmon.
"Menga bir qiziqchi topilsin darhol
Har kun yangi ertak aytsin kech tomon.
Ammo bilib qo'ysin, bitta ertakni
Ikki marta aytsa, unga shafqat yo'q.
Men ham chaqiraman ikki erkakni
Buni qatl eting deb beraman buyruq".
Qiziqchi qirolga aytadi ertak,
Unda bir Jek degan bola bor qiziq -
Ukasi Jok kiyib yurganda yaktak.
Yoqasidan asta tashlar itbaliq.
Ammo Jok parvo ham qilmaydi bunga -
Qo'rroq emasdi-da anavinaqa.
"Hap senimi" dan qorong'i tunda
Jekning etigiga solar qurbaqa.

Qiziqchi minglarcha ertak aytadi.
Bilgan ertaklari bitar nihoyat.
Shunda u birinchi kunga qaytadi -
Jek va Jok ertagin qilar hikoya.
- Sho'x bolalar ekan, - xoxolar Dunkan,
- O'zing ham juda zo'r qiziqchisan, - der,
- Endi bundan buyon har kun har kecha
Jek va Jok haqida aytib beraver.

"ELIS-JIN"


Bir kuni qing'oqqa yarim kechasi
Olis dengizlardan keldi bir kema.
Qora machtalari yaydoq - yelkansiz -
Ichida ko'rinmas hech kim, hech nima.
Ustin qoplagandi dengiz o'tlari.
Yam-yashil o'tlarki, harir, jimjima.
Hammaning bo'linib shirin tushlari
Yosh-qari kelgandi ko'rfazga tomon.
Sohilda talay vaqt turishdi jim-jit.
Hech nima tushunmay odamlar hayron:
Oydinda huvillab bo'm-bo'sh bu kema
Arvohtay indamay turardi bejon.

Vahima, qo'rquvlar devorin yorib
To'satdan yangradi yangroq sado:

- Odamlar, bu kema "Elis-Jin"ku! - deb
Qichqirdi, ko'zlari xira bir momo, -
Mening Jon o'g'lim ham ketgandi unda,
Ummonga ketgandi u mash'um asno.

Bilaman, "Elis-Jin" cho'kkan ummonga,
U yoqda to'lqinlar qop-qora bo'lar.
Suvlar ostidagi o'tlar ichida
Balchiqqa ko'milib kemalar o'lar.
Uyiga qaytgisi kelgan "Elis-Jin"
Va qaytgan sohilga, bosib ko'p yo'llar...

Ha, chindan "Elis-Jin" qaytdi uyiga
Ranglar yog'dularin to'kardi osmon.
Ammo palubaga chiqib ko'ray deb
Hech kimsa bormadi suzib u tomon.
Shundan so'ng arvohtay indamas, bo'm-bo'sh
Kema g'oyib bo'ldi, yorishganda tong.





Абу Райҳон Беруний
(973-1048)

Bolajonlar, sizlarga ma'lumki, kasallikni davolash va uning oldini olish maqsadida dorivor o'simliklardan dori turlari tayyorlanadi yoki ulardan dorivor preparatlar va sof holdagi dorivor moddalar olinadi. Buning uchun shu o'simliklarning kasalliklarni davolash xususiyatiga ega biologik faol moddalarga boy bo'lgan qismlaridan, ya'ni ba'zi o'simliklarning yer osti qismlaridan (ildiz, ildizpoya, tuganak yoki piyoz), ba'zilarining esa ustki qismlaridan (barg, gul, meva, urug', po'stloq yoki o't o'simliklarning butunlay yer ustki qismi o'ti)dan foydalaniladi.

Zahmatkash olim Ubaydulla Karimov to'rt nusxa asosida 1965-1973 yillar davomida "Saydana"ning ruscha matnini yaratadi va ilmiy-tahliliy tafsiflar hamda izoh va ilovalar bilan nashrga tayyorladi.

"Saydana"da ajdodlarimiz bir xil o'simlikning o'nlab nomlari bilan tanishadilar. Turlariningina emas, faqat bir xil qismlarining ham o'z nomlari bor. Masalan, o'simlikning umumiy nomi va uning o'nlab tillardagi muqobillari, uning tanasi, yo'g'on shohi, ingichka shohi, eski shohi, yangi shohchasi, yangi shohchani uchi, g'unchasi, danagi, urug'i, bargi, eti, ulardan tayyorlanadigan ikkilamchi mahsulotlarning nomlari, uchlamchi mahsulotlarning nomlari alohida-alohida keltirilgan. Ular bilan tanishgan har qanday o'zbekning lug'at boyligi kengayib, teranlashib, noziklashib, boyib ketishi turgan gap.

"Saydana"da jug'rofiya va etnografiyaga doir qiziqarli ma'lumotlar ham talaygina. Masalan, "Shaqaiq un-no'mon" atamasi bilan

nomlangan faslda keltirilgan hikoyat o'quvchida "ko'rkam va dorivor o'simliklarni asrovchi davlat qo'riqxonasi bo'lishi shart" degan fikrni uyg'otadi. Unda shunday hikoya bayon etilgan: «Bir kuni shoh No'mon ibn Munzir ketayotib, qumli bir tepalikda to'xtaydi. U yerdarangi qon rangidek qip-qizil gullar o'sardi. No'monga bu gullar juda chiroyli ko'rinadi. Va u yerning atrofini o'rab, gullarni hayvonlardan, shamollardan asrash kerak, deb farmon beradi. Shuning uchun

"Odamni albatta o'ldiruvchi bu o'simlik sulton nazoratida turadi, sulton biron ko'ngilsizlik keltirib chiqarmasin deb uni maxsus qo'riqlatadi», kabi jumalarni takrorlaydi. Bundan xulosa shuki, qadim zamonlarda ham qimmatbaho modda va o'simliklar singari, hayot uchun xavfli giyohlaru moddalar davlat nazoratida bo'lgan ekan. Bu bizga bugun yurtimizdagi ma'danlaru paxta, pilla singari qimmatbaho o'simliklar davlat yakkahokimligida turishi

besh yuz dirham toza kumushga sotib olishadi. Sotib olingan modda gulsafsar ildizi ekan. Tabiblarning jahllari chiqib, sotuvchiga ta'na qilishadi. Shunda u: "Sizlar dorivorning nomini bilmadingiz, lekin aslida shuni so'radingiz" (arabchada: jismini emas ismini)" deb javob beradi.

"Saydana" Muqaddima va Asosiy qismdan iborat. O'z navbatida, muqaddima 5 bobdan, asosiy qism esa 1116 fasldan tarkib topgan.

Muqaddimaning kirish

DORIVORLARNI BILASIZMI?

bu gullarning asl nomi shakir bo'lsa ham Shaqaiq un-no'mon dedilar». Yoki choy ichimligining shifobahshlik xususiyatini sharhlashga bag'ishlangan "Cha" maqolasida qadimda, Xitoyda choy o'simligi ham xuddi tuz va oltin kabi davlat nazoratida

Хоразмлик буюк олим Абу Райҳон Муҳаммад ибн Аҳмад ал-Беруний билимнинг барча йўналишларига оид 150 дан зиёд асарлар ёзган. Аммо уларнинг ҳаммаси ҳам муфассал ўрганилган эмас. "Сайдана" (тўлиқ номи "Китоб ас-сайдана фи-т-тибб" "Тиббиётда доришunosлик китоби") шулар жумласидандир. У Жаҳон илм-фанида дориворлар ҳақидаги билим, деб юритилади.

qismida Beruniy "saydana" (dorishunoslik) va "Saydanoniy" (dorishunos) atamalariga aniqlik kiritib, bu fanning vazifalari va uning tibbiyotda tutgan o'rnini sharhlagan.

Muqaddimaning I bobi "Saydana"

so'zining kelib chiqishini tafsiflashga bag'ishlangan. II bobning boshida dorilar sodda yoki murakkab tarkibli bo'lishini, sodda dorilar aqaqir (birl.aqqar) so'zi bilan ifodalanishi ta'kidlangan. Keyin inson tanasining ozuqa moddalar, dorivorlar va zaharli

so'zining kelib chiqishini tafsiflashga bag'ishlangan.

II bobning boshida dorilar sodda yoki murakkab tarkibli bo'lishini, sodda dorilar aqaqir (birl.aqqar) so'zi bilan ifodalanishi ta'kidlangan. Keyin inson tanasining ozuqa moddalar, dorivorlar va zaharli

"Хоразм ва Бухорода қалин ўсадиган дарахт бор, унинг ўзаги сариқ бўлиб, қизил аччиқ-чучук мева қилади. Шилиб олинган пўстлоғи (қизғиш-сариқ), яъни халука рангли бўлади. Уни баруд, Бухорода эса махлаб дейдилар. Камонни чиройли безаш учун уни камон ўқиға ўрайдилар".

bo'lganligi, uni o'g'irlaganlar o'lim jazosiga mustahidligi to'g'risida ma'lumot bor. Bu bizning asrimizdek - tabiat va ekologiya buzilgan davrda, bozor iqtisodiyoti sharoitida umumxalq salomatligi va manfaatiga xizmat qiluvchi narsalar baribir davlat himoyasida bo'lishi shart, degan go'yani yuzaga chiqaradi.

Asarda zaharli vositalarga ham katta o'rin berilgan. O'nlab zaharli o'tlar va moddalar o'quvchilarga batafsil, atroflicha tanishtirilgan. Ulardan o'ndan ortiqrog'i odamni so'zsiz o'ldiruvchi vositalardir. Muallif bu ajal elchilari haqida ma'lumot berar ekan, go'yo xalqqa qarata: "Ehtiyot bo'ling, u-hayot kushandasi!" degandek bo'ladi. Beruniy faqat bayonu tavsif bilan qanoatlanib qolmaydi, u ko'p o'rinlarda

Beruniy "Saydana"ga yozgan muqaddimasida qarilik sababli o'z ko'z va quloqlarining ancha zaiflashib qolganligidan shikoyat qiladi. Shu sababli mo'ljallangan kitobni yozib tugatish uchun g'aznalik tabib Abu Homid Ahmad ibn Muhammad an-Nahshaiyning yordamidan foydalanadi.

"Saydana" o'sha vaqtlarda Sharqda mavjud bo'lgan dorishunoslik tarixi bo'yicha yozilgan eng qimmatbaho manba hisoblanadi. Olimning bu asari Ibn Sinoning "Tib qonunlari"dan keskin farq qiladi. Ibn Sino dorivor vositalarning tarkibini, xususiyatlarini hamda kasallikka ta'sirini, dorivor vositalardan dorinoma bo'yicha ma'lum bir malham, ichimlik, dori tayyorlashni ham aniq yozgan.

Beruniy shunday bir hikoyani misol keltiradi: "Dorilarning turli tillardagi nomlarini aniq bilish inson uchun foydalidir. Mening esimda, xorazmlik bir amir kasal bo'lib qolganida, kasallikning davosi uchun Nishopurdan dorinoma jo'natadilar. Lekin dorishunoslar, hakimlar dori tarkibining bir qismini hech topa olmaydilar. Nihoyat, u bir odamda borligini eshitishib dorivorning o'n besh dirhamini

"Мен бу ўсимликни (қичитқи) Журжонда йўл чеккаларида, ариқ бўйларида кўрганман. Агар баданга тегиб кетса, баданни ачитиб куйдиради. Журжонда эшитишимча, ундан егулик тайёрланар экан". "Афгон тоғларида ёввойи зайтун учрайди, унинг меваси майда бўлиб, ёғга соладилар, уни шванна дейдилар".

vositalar bilan o'zaro aloqasi haqida so'z yuritiladi. Hindlar orasida kasallikni zaharlar bilan davolovchi tabiblar borligi haqida ma'lumot berilgan. Bunday holatlarga misollar ham keltirilgan. Bob so'ngida hind tabiblari orasidaham Gippokrat qasamyodiga o'xshash ibora mavjudligi to'g'risida so'z yuritilgan, lekin afsuski, bunga to'liq aniqlik kiritilmagan.

Muqaddimaning III bobida

bir dori o'rniga boshqa dorini qo'llash masalasi atroflicha bayon etilgan. Beruniy o'z fikrlarini san'at va fan tarixiga asoslanib, ifodalagani tufayli ham bu bob mazmunan boyligi bilan ajralib turadi. Beruniy qadimgi grek xalqining fan taraqqiyotiga qo'shgan buyuk xizmatlarini ta'kidlaydi. Sharq xalqlari orasida hindlar anchagina faol ekanini aytadi. Ayni vaqtda tili, dini va urfodatlar o'rtasida katta tafovut borligi tufayli hindlar madaniyati bilan bog'lanish birmuncha qiyinligi e'tirof etilgan.

IV bobda muallif arab va fors tillariga o'zining munosabatini yozadi. Beruniy o'zining ona tili - Xorazm tili ekanini ta'kidlaydi. Uning fikricha, ilmiy til faqatgina arab tili bo'lishi kerak. Fors tili esa "Xusaraviy she'rlarga, tungi ertaklarga" mos.

So'nggi V bobdan bizga ma'lum bo'ladiki, Beruniy yoshligidanoq o'simliklarning grekcha nomlari bilan ham qiziqqan. Yozilishicha, o'sha davrda Xorazmda bir grek olim yashagan. Beruniyning yordamida o'simliklarning grekcha nomlarini bilib olib, arab alifbosida yozib olgan ekan. Arabcha bo'lmagan so'zlarni aynan to'g'ri ifodalash qiyin ekanini, grekcha qo'lyozmalarining arabcha tarjimasi aniq emasligi haqida fikr bildirgan.

Asosiy qism dorivor vositalar nomlari, ular haqidagi qisqacha izohlar, qiyoslar, arabcha atamalarining boshqa tillardagi muqobillari, ba'zan esa bu atamalarining kelib chiqish tarixi, ayrim dorivor moddalarning shifobahshlik xususiyatlari sharhidan iborat.

Bandlar (fasllar)ning tarkibi turlicha, ya'ni bir necha so'zdan tortib, bir necha varaqlargacha boradi. Kitobdagi dalillar shuni ko'rsatadiki, Beruniy bir necha tillarni yaxshi egallagani uchun shu tillardan arab tiliga kirgan ilmiy istilohlarning kelib chiqishi, ularning ma'nolar va imlolarga alohida diqqat qilgan va natijada o'rta asr Sharqida dorishunoslik va tabobatda qo'llanilgan atamalarni umumlashtirib, ma'lum bir tartibga solgan. Umuman "Saydana" Beruniyning dorishunoslik va tabobatdan tashqari, botanika, zoologiya, filologiya, geografiya kabi boshqa fanlarga ham qo'shgan hissasi juda salmoqli bo'lganini ko'rsatadi.

Muharrama PIRMATOVA

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda).

OYNATOG' TOMONLARDA

Oynatog' shundoq qarshimizda ekan-u bizlar uni kun bo'yi qidirish bilan vaqt o'tkazibmiz. Uch soatga yetar-yetmas yo'l yurganimizdan so'ng osmonga mag'rur bo'y cho'zgan, atrofida pag'apag'a bulutlar girdobga o'xshab aylanib yurgan cho'qqi qarshisiga yetib keldik. Haqiqatan ham bu tomonlarga kuni kecha qor tushgan, izg'irin esib turar, odam vujudi junjikardi.

Reja bo'yicha shamoldan panaroq, ikki bo'yra hajmidagi yalanglikka chodir tikdik. Ortiqcha yuklarni Tursunboy akaning qo'rasida qoldirib, u kishining doroz, baquvvat eshagiga kerakli ashqoldashqollar qatori bir bog' o'tin ham yuklab olgandik. To'g'rirog'i, Tursunboy aka bu hali sizlarga as qotadi deya qurigan to'rang'i navdalarini yuklarimiz ustiga tashlab qo'ygandi.

Oramizda yana bir hamroh naq eshak bolasiday keladigan junlari o'siq, ko'kimtir "Bo'ribosar" ham bor edi. U o'tovning bir chetida erinchoqlik bilan mudrab yotgan joyidan egasining "qani mehmonlar bilan jo'nachi, marsh!" degan buyrug'ini eshitibdik dik etib turib, bizning guruhimizga qo'shib olgan, xuddi qayoqqa ketayotganimizni bilganday, o'n besh-yigirma qadam oldinda sarbonlik qilib borardi. Bir amallab olov yoqdik. Ha, deganda choy qaynayvermadi. Bizlar buni yuqorida havoning kamligidan deb bildik.

Cho'qqini zabt etish kabi "tarixiy" daqiqalarni muhrlash uchun uch kundan beri ilhaq bo'lib yurgan Muhammadjon negadir xomush tortib qolgandi. Qaynoq choydan vujudimizga biroz ilqlik yugurgach, uni chetga imlab:

- Kayfiyatingiz yo'q ko'rinadi! - deb so'radim.

Muhammadjon oynaday yarqirab

turgan, atrofida qor to'foni avjga mingan cho'qqi tomon bir nazar tashlab qo'ydi-da, ohista dedi:

- Oynatog' cho'qqisi bunday baland bahaybat deb o'ylamagandim.

Uning ho' tepasidagi g'ujg'on o'ynayotgan qorga qarang, u yoqqa chiqishimizga ko'zim yetmaydi. Olib kelgan arqonlarimiz ham hech narsaga yaramasa kerak!

- Ey, oshna, -deya uning ko'nglini ko'targan bo'ldim, - cho'qqini olishda harbiy taktika yo'lini qo'llaymiz. Tursunboy akaning aytishicha, orqadan aylanib, cho'qqiga chiqsa bo'ladigan so'qmoq bor. Bolalarga anavu, alpinistlar qorbo'ronga uchraganda taqib oladigan vahimali ko'zoynaklarni taqdiramiz. Belidagi qayishlarga arqon bog'laymiz. Keyin uning uzun qismini oynatog'ning manavu silliq "yuzi"ga tashlab, avval sirg'alib tushamiz, so'ngra osilib ko'tarilamiz...

qoladigan tosh o'rkachlarini hisoblanmasa, mo'ljalni to'g'ri olib, ko'tarilib borish ancha mushkul edi. Bolalar ba'zan oyoqni nojo'ya bosib o'pqonga tushganday qorga ko'milib ketishar, shunday paytlarda arqonga jon-jahdlari bilan yopishib, bir-birlariga yordam qo'lini cho'zishardi. Hammasidan ham sovuq izg'irin o'tib tushdi, badanlarimizga ignadek sanchilar, panjalarimiz qotib qolayotganga o'xshardi.

Muhammadjon Nig'mat bilan Zohidning cho'qqiga tirmashib turgan holatdagi ikki-uch suratini oldi.

Mo'ljallangan manzilga bir necha qadam qolganda Nu'monning bir poy botinkasi qoq yarmigacha so'kilib, oyog'i qorga belanib qoldi.

- Senga aytgandim-a, qo'shni

Dadaxon NURIY

mahalladagi juhud yamoqchiga olib borgin, pulni ko'proq olsa ham ishni puxta qiladi, deb. Pishiqsan, oshna, pishiqsan! - Vakil sinfdoshiga hazilomuz dakki bergan bo'ldi, sovuqsagan qo'llarini bir-biriga ishqab.

Nu'mon qor uyumlari orasidan yangi ochilgan "yo'lak" bo'yab pastga - gulxanni gurullatib o'tirgan Solih tomon tushib keta boshladi.

Nihoyat, cho'qqini zabt etdik. Tinimsiz esib turgan shamoldan pana bo'ladigan joy katta xarsang orqasiga o'tib, biroz nafas rostlab oldik.

Mo'ljaldagi asosiy ish endi boshlanishi kerak edi.

AJAL O'PQONI

Uzun arqonning sirtmoqqa o'xshatib bog'langan uchini cho'qqidagi toshlardan biriga tashlab, unga osilib, oynatog'ning silliq nishab tomoni bo'yab ozgina pastga tushishimiz, qo'limizda bayroq bo'lishi lozim edi... Axir, cho'qqini ancha qiyinchilik bilan, qahramonona ishg'ol etilganligini isbotlovchi dalillar kerak-da!

Yigitlar qor aralash izg'irinda ancha dag'allashib qolgan arqonning ikkinchi uchini pastga uloqtirdilar. U oynatog'ning qiyalab ketgan "yuzi" bo'yab o'n-o'n besh quloch sirg'alib tushdi-da, qo'yiroqdagi darz ketgan yerdan o'sib chiqqan namatakka o'xshash o'simlikning chayir shoxlariga ilashib qoldi.

Arqonni yana pastroqqa tushirmoqchi bo'lib, undan mahkam ushlab, qiyalikka oyoq tiraganimni bilaman... Kutilmaganda meni qandaydir kuch o'z domiga tortib keta boshladi, borliq chappasiga aylanib, ko'zim oldi qorong'ilashdi. Nimalar yuz berganini anglolmayman.

(Davomi bor).


SHAYTON MALAYLARI

Ana, sizga tarixiy surat olishingiz uchun tarixiy lahzalar!

Suratkashimizning qop-qora cho'zinchoq yuzlariga kulgi balqib, kichkina ko'zlari charaqlab ketganday bo'ldi. Yelkamga uzun qo'llarini tashladi:

- Aytgan-cha, siz bu tomonlarda ko'p bo'lgansiz, shart-sharoitni yaxshi bilasiz! - Otangiz Mannop akaning shogirdimizda!

Oynatog'ning orqa tarafidan chiqiladigan aylanma yo'lak deganimiz odam bo'yidan baland, bir-biriga mingashib yotadigan xarsanglardan iborat yonlama edi. O'shalarga tirmashib, yo'l topib ko'tarilish kerak. Biroq, qalin qor xarsanglar orasiga uyulib, hammayoqni bir xil oppoq "ko'rpa"ga burkab yuborgan, u yer-bu yerdan qorayib, ko'zga tashlanib

**"ULUG'NOR" BAHORINING GUL-CHECHAKLARI**

Aziz o'quvchi! Musaffo yoshlikni bahorga o'xshatishadi. Darhaqiqat, yoshlik umr bahori. Ayniqsa, kamolot yoshida, o'n besh, o'n olti, o'n yetti yoshda. O'z ichki tuyg'ularini yaqin do'sti va dugonasiga aytmagan, xayolparastlik, ishonuvchanlik, soddalik

talqinlarini mehr-muhabbat, sirli qarashlarni tashbehli satrlarda ifoda etmagan o'smir bo'lmasa kerak... Bunday tuyg'ularning qadriga yetib, Vatan mehri, mustaqillik g'ururi bilan o'z fikrlarini hayot jarayonida shakllantirib, iste'dod, tinimsiz mehnat orqali har qanday maqsadga yetish umidi, hozirgi baxtiyor yoshlarimizning asl muddaolaridir. Andijon viloyati, "Ulug'nor" tumanidagi Mirzo Ulug'bek nomli 15-o'rta maktabning 8- "B" va 10-"B" sinf o'quvchilari ana shunday yoshlardan hisoblanishadi.

Quyida ularning she'riy sarchashmalaridan bahramand bo'ling.

YEL VA SHABBODA

Uzoq-uzoq o'rmon tomonda,
Yashar edi yel va shabboda.
Juda qalin do'st edi ular,
O'ynashardi xushhol samoda.

Quvlamachiq o'ynashib har dam,
Charchashmasdi, olishmasdi dam.
Gul yaprog'in yulqib subhidam,
Urushib ham turardi ba'zan.

Bir kun kelib, shabboda yelga:
- O'ynamayman sen bilan, - debdi.
Yelning hayron nigohin ko'rib,
Tengim emassan mening, - debdi.

Yoqar edi shabboda yelga,
Aytolmasdi buni o'ziga.
Shabboda ne desa bariga,
Ko'nar edi doim so'ziga.

Do'stlik ulug', muhabbat ulug',
Bu yo'llarda qilmagin xato.
Aylanishi mumkin bir kuni,
Do'stlik asl sevgiga hatto.

Xilola QOSIMOVA


ANOR

Anorman, men anorman,
Dardingizga darmonman.
Meni yesangiz qancha,
Sizga davoman shuncha.

Sharbatimni ichsangiz,
Chanqov bosdi bo'ladi.
Huzurlanib tanangiz,
Kuch-quvvatga to'ladi.

Mevamdir shoda-shoda,
Ehtiyot bo'lib uzib ol.
Donalarim qirmizi,
Yesang, ta'mi misli bol.

Sevara BO'RONOVA

**BUVIJONIM**

Farzandlarning faxrisiz,
Nabiralar baxtisiz,
Xonadonimiz ko'rki,
Sizsiz olam jahonim,
Bor bo'ling buvijonim.
So'zlaringiz biram soz,
Chehrangiz qishda ham yoz,
Mehringizga ta'rif oz,
Sizsiz olam jahonim,
Bor bo'ling buvijonim.
Shahnoza AHMEDOVA.




"Istiqloq umidlari"
to'garagimiz mashg'ulotiga haykaltarosh Gulsara opa Rajapova mehmon bo'ldilar. Bunday insonlar nafaqat to'garagimiz qatnashchilari, balki sizni bizning hayotimizda ham juda kam uchraydilar. Gulsara opa o'z mablag'i hisobiga nogiron bolalar markazi ochib, muruvvat uylari, nogiron va soqov bolalar maxsus maktab internatlarida tarbiyalanayotgan 50 dan

BIZ MARKAZGA BORAMIZ

ziyod o'g'il-qizga haykaltaroshlik, musavvirlik, grafika, tasviriy san'at, melkoplastika sirlarini o'rgatib kelyapti. E'tiborli jihati shundaki, Gulsara opa ham, u bilan birga ishlab kelayotgan o'qituvchilar ham hech qanday maosh olishmas ekan. O'z asarlarini sotib, bolalarning ishlashi uchun kerakli bo'lgan xom-ashyolar

sotib olisharkan... Eh-he, Gulsara opa amalga oshirayotgan xayrli ishlar haqida gapiraman desak, gap ko'p. Keling, yaxshisi bu haqda gazetamizning navbatdagi sonlaridan birida batafsilroq to'xtalaylik-da, to'garak mashg'ulotimizga qaytaylik. Mashg'ulotimiz juda qiziqarli o'tdi. Gulsara opaning hikoyalaridan




ta'sirlangan o'quvchilarimiz markazga borib, nogiron, ijodkor tengdoshlari bilan tanishish, do'stlashish, ular haqida maqola yozish niyatini bildirdilar.

SHAMOL BILAN SUHBAT

Ey shamoljon, shamoljon,
Qayerlarga shoshasan?
Qulog'imga shivirlab,
Yana dovon oshasan.
- Men bog'larga shoshaman,
Hosillar mo'l bo'lsin deb.
Bulutlarni haydayman,
Tuproq suvga to'ysin deb.
Daraxtlarni changlayman,
Meva bolga to'lsin deb.
Ularni yeb bolalar,
Sog'lom, durkun bo'lsin deb.
- Mayli-mayli shamoljon,
Boraqolgin sen omon.
Bog'lar, tog'lar oshaver,
Yo'llaring bo'lsin ravon.

Ziyoda MIRZAJONOVA,
Shayxontohur tumanidagi
M.Lutfiy nomli 254 -
gimnaziya maktabining 2-
"V" sinf o'quvchisi.



Тенгдошнингиз Дилрабо Мустақиллик айёмидан бир лавҳани қоғозга туширибди.

POSBON AKAMGA

Posbon akam bor bo'lsa,
Tinch ulg'ayar avlodlar.
Xalqlar ahil, do'st bo'lsa,
Yuksaladi davlatlar.
Yurt tinch bo'lsa, el shodon,
Ona Vatanim ko'rkam.
Posbon akam bor bo'lsa,
Osuda bo'lar o'lkam.



D. DO'STQOBILOVA,
Yakkasaroy tumanidagi 118-
maktabning 4-"A" sinf o'quvchisi.

BIROVGA CHUQUR QAZISANG...

Qadim-qadim zamonda bir katta daraxtzor bo'lgan ekan. Bu daraxtzorda nastarin, majnuntol va boshqa turdagi daraxtlar o'sar ekan. U yerda odamlar yozning chillasida salqinlashar, miriqib dam olisharkan. Ayniqsa, keksa majnuntolning tagi doimo gavjum bo'larkan. Buni ko'rgan nastarinning g'ayirli kelar, uning soyasida ham odamlar dam olishlarini, bolalar o'ynashlarini xohlar ekan... O'ylay-o'ylay hasadli bir fikrga kelibdi. Qanday bo'lmasin

majnuntolni qo'rqitmoqchi bo'libdi. Shu payt nastarin yerda ketayotgan uch-to'rtta chumolini ko'rib qolibdi. Ularni oldiga chaqirib, daraxtzor yonidagi uydan zaharli dori olib kelib, majnuntol ildiziga ko'mib qo'yishlarini, evaziga o'zining eng chiroyli gullaridan berishini aytibdi. Chumolilar uning aytganini qilibdilar va nastarin gulidan olibdilar.

Kechga yaqin qattiq shamol bo'lib,

sel quyibdi. Majnuntol tagidagi zaharli dorini sel yuvib, nastarinni ildiziga keltirib qo'yibdi. Oradan uch-to'rt kun o'tibdi. Nastarinning barglari asta-sekin qurib, xazon bo'la boshlabdi. Uni ko'rgan boshqa daraxtlar hayron bo'libdilar. Chunki hali ko'klam edi-da. Nastarin borgan sari ildizlarida mador, shoxlarida barg qolmaganligini ko'rib, yum-yum yig'labdi. Ammo u nima uchun bunday bo'layotganini hecham

tushunolmabdi. Uni ko'rgan odamlar, qurigan daraxt bexosiyat bo'ladi, deb kesib tashlashibdi. Daraxtlar unga achinibdilar. Ayniqsa, majnuntolning unga juda rahmi kelib, ko'z yosh to'kibdi. Qissadan hissa: Birovga choq qazisang, unga o'zing yiqilasan. Shunday ekan doimo bir-birimizga yaxshilir qilishimiz va faqat ezgulikka intilishimiz lozim.

Feruza OBIDOVA,
Toshkent viloyati, Yangiyo'l shahridagi 2-o'rtta maktabning 9- sinf o'quvchisi.

XANDALAR

O'qituvchi o'quvchidan uy vazifasini so'radi.

- Kecha darsni yaxshi tushuntirmadingiz. Shuning uchun darsni tayyorlamadim, - dedi o'quvchi.
- Darsni tushunmagan bo'lsang, nega mendan so'ramading. Qayta tushuntirib berardim, - so'radi o'qituvchisi jig'ibiyron bo'lib.

- Axir mendan so'rashingizni bilmagandim-da...

x x x

Telefonda yarim soatdan ortiqroq gaplashgan Nargizadan akasi so'radi:

- Kim bilan muncha uzoq gaplashding?
- O'rtog'ingiz ekan.
- Iye, nega meni chaqirmading?
- Uni sizda gapi yo'q ekan...

Gulruh YO'LDOSHEVA,
Navoiy viloyati, Xatirchi tumanidagi 54-
maktabning 7-sinf o'quvchisi.

TOPISHMOQLAR

Bahor chog'i aylanar,
Yetti rangda tovlanar,
Ko'kka tiksang ko'zingni,
Quvonchdan ko'zing yonar.

(Kamalak)

Osmon choki so'kildi,
Marvarid tut to'kildi.
Bir zumda chor-atrofga,
Mayda toshlar to'kildi.

(Ustul)

Sunbula HAYDAROVA,
Qashqadaryo viloyati, Qarshi
tumanidagi B.Oripov nomli maktab
o'quvchisi.

O'zbekiston bolalari
va o'smirlarining
gazetasi

Muassislar:
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
DAVLAT MATBUOT
QO'MITASI,
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI,
«KAMOLOT»
YOSHLAR
IJTIMOIY
HARAKATI,
«SOG'LOM AVLOD
UCHUN» XAYRIYA
JAM'ARMASI

BOSH MUHARRIR:
Umida ABDUAZIMOVA
TAHRIR HAY'ATI:
Shuhrat AHMEDOV,
Jamoliddin FOZILOV,
Oynisa
MUSURMONOVA,
Komil YUSUPOV,
Mukarrama
MURODOVA,
Sunnatilla QO'ZIYEV,
Ergashvoy SARIQOV.

Noshir
«Ijod dunyosi»
nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi kompyuter
bo'limida terib
sahifalandi.

Hajmi A-3, 2 bosma
taboq.

«Sharq» nashriyot-
matbaa aksiyadorlik
kompaniyasida 58.519
nuxxada ofset usulida
bosildi.

Korxonalar manzili:
«Buyuk Turon»
ko'chasi, 41.
Buyurtma № T-2892
Gazetani
Abduhamid
ABDUG'AFFOROV
sahifaladi.
Navbatchi:
Feruza ODILOVA

Ro'yxatdan o'tish
tartibi № 000137
Manzilimiz: 700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi,
30-uy.

Tel: 144-62-34.
144-63-08